



BENAZIR USTOZ O'GITLARI

Bozorova Gulchexra

NDKTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Erdonova Gulgina,

Botirova Ruxshona,

G'ulomova Diana

NDKTU akademik litseyi 2-N-24 guruhi o'quvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning asosan didaktik janrda yozilgan asarlarida ilgari surilgan g'oyaviy maqsadlar, ta'lim-tarbiya masalalari haqida gapiriladi. Ularning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati misollar yordamida yoritilgan. Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kali so'zlar: didaktika, obraz, ruboiy nazm, navo, nasr, janr, til mahorati.

Abstract. This article discusses the ideological goals and educational issues put forward in Alisher Navoi's works, which are mainly written in the didactic genre. Their significance in modern socio-political life is illustrated with the help of examples. The significance of Navoi's works today is analyzed.

Keywords: didactics, image, rubai poetry, navo, prose, genre, language skills.

Kirish.

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotning eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotining ravnaki uchun uningdek xizmat ko'lgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotining eng yuksak cho'qqisidir. U koldirgan adabiy yodgorlik hozirgi texnika va texnologiya, informatsiyaning shiddatli rivojlanish asrida ham ma'rifat, adabiyot olamini xayratga solib kelmokda. Uning umr, ezgulik, insoniy munosabatlar, kishi fazilagtlari, axloq va odob, ilm-fan, davlat tutishlik hamda ta'lim- tarbiya ilmi kabi sohalar buyicha yaratgan falsafiy fikrlari o'zining



dolzarbligini bugungi kunda ham yuqotgan emas. Umrini xalk tashvishi-yu dardlariga baxshida etgan, insonlarni ezgulikka, bag‘ri kenglikka, ilmga da‘vat etgan ulug‘ shaxs xayoti va ijodi buyuk bir mamlakatning tahlikali, inqirozga yuz tutayottan davrlariga to‘g‘ri kelganligini biz tarixdan yaxshi bilamiz.

Navoiy turkiy va forsiy tillarda birday mahorat bilan qalam tebratgan zabardast zullisonayn shoir edi. Ammo turkiy tilda she‘r bitishda hech kim Navoiydek kamolot qozonmagan. Shoirning piri va ustози Absurahmon Jomiy uzining “Baxoriston” asarida Navoiyning nodir iste‘dodiga, zullisonaynlik salohiyatiga taxsinlar aytadi hamda uning turkiy nazmidagi balog‘atiga shunday baho beradi: “... ba on za bon besh az vay va bex az vay kase she‘r nagufta- ast va gavxari nazm nasufta”. Ya’ni, Jomiy aytmoqchi, turkiy tilda hech kim Navoiydek ko‘p va xo‘b she‘r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi.

Bulmas adabsiz kishilar arjumand,

Past etar ul xaylni charxi baland,

deb yozgan shoir jamiyatni uzgartirishda, odamlar urtasida yaxshi munosabatlar urnatimda, shaxe ma’naviy takomilida xulk-axlok me‘yorlariga rioya kilishning va tarbiyaning roliga yukori baho beradi. Xalk va mamlakat ishiga sadokat, dustlik, birodarlik, rostguylik, xalollik, saxiylik, mexnatse- varlik muxim urin egallashini ta’kidlaydi. Jamiyatda uzini yaxshi tuta bilishlik, kamtarlik va pok ishk ega si bulish, ilm- ma’rifatni sevish, odamparga yaxshilikni ravo kurish, sabrli- chidamli bo‘lish, nafs amriga berilmaslik, birovning hakiga xiyonat qilmaslik - bular barchasi Navoiyning komillik xislatlari bo‘lib, ulug‘ san’atkor o‘z iste‘dodini ushbu olijanob g‘oyalarni yuksak badiiy chizgilarda ifodalashga bag‘ishladi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so‘zining ma’nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lgan kishi, demakdir 2 . Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar, ezgulik va



yovuzlik, do'st va dushmanlik, diyonat va xiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e'tiborga molikdir.

Nafsing etsa sho'xlug', charx emgagidin qil adab,

Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib

Uning ilm-ma'rifat to'g'risidagi o'gitlarini, adolat va fazilat borasidagi da'vatlarini yodga olish va kongillarga jo qilib, g'urur hamda faxr bilan o'zimizni kashf etib yashasak, asarlarini hayrat bilan o'qib anglasak, bu buyuk inson siymosiga hurmat bajo etgan bo'lur edik.

Xulosa.

Alisher Navoiy o'zining beqiyos ilmiy-ma'naviy merosi bilan nafaqat o'z davri, balki bugungi pedagogik tafakkur uchun ham bitmas-tuganmas ma'naviy manba hisoblanadi. Uning ustozlik, murabbiylik va komil inson tarbiyasiga oid o'gitlari bugungi ta'lim jarayonida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Navoiy ta'limning bosh maqsadi – insonning ma'naviy kamoloti, uning qalb va aql birlikda rivojlanishi ekanini uqtiradi. Shoirning “ustozga hurmat”, “ilmni qadrlash”, “odamiylikning mezoni – xulq” kabi tamoyillari zamonaviy ta'lim va tarbiyaning asosiy ustunlari sifatida qabul qilinishi lozim.

Navoiy ta'kidlaganidek, haqiqiy ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsning dunyoqarashi, axloqi va insoniy fazilatlarini shakllantiruvchi ma'naviy yo'lchi sanaladi. Shu sababli bugungi pedagoglar uchun Navoiy o'gitlari o'quvchi-yoshlar tarbiyasida adolat, halollik, rahm-shafqat, sabr-toqat va ilmga muhabbat kabi fazilatlarni singdirishda beqiyos metodik va ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning benazir ustoz o'gitlari inson tarbiyasida ma'naviy poklik, ruhiy yetuklik, komillikka intilish va ustoz-shogird munosabatida samimiyatni qaror toptiruvchi yuksak qadriyat bo'lib, hozirgi ta'lim tizimida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas asoslaridan biri sifatida qadrlanadi.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy “Hikmatlar”. O‘zbekiston. – T. 2011.
2. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. Fan. – T. 2000.
3. Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. Journal of Applied Science and Social Science, 1(2), 474-479.
4. Rajabova, D. (2025). SYSTEMIC PROBLEMS OF THE CURRENT STATE OF THE INNOVATION ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 638-643.
5. Rajabova, D. (2025). WAYS TO IMPROVE INNOVATION ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 604-610.
6. Rajabova, D., & Usmonova, D. (2024). BIG DATA VA IQTISODIY TADQIQOTLARDA TAHLILIY IMKONIYATLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(15), 16-23.